

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.R.Mehmonova	
Dialogik nutq va uning birliklari.....	258
N.Y.Ortiqova	
Tovushga taqlid so'zlarning lingvopoetik xususiyatlari (Anvar Obidjon asarlari misolida).....	262
F.S.Karimova	
Fanlararo yondashuv bilingvismni o'rganish metodologiyasi	268
N.M.Karimova	
Prose in english and russian literature	273
R.X.Xayitova	
Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan nostalgik leksik birliklarning tahlili.....	278
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" romanining inglizcha tarjimasida metaforaning qo'llanishi	283
D.N.Abduvaxabova	
Kompyuter lingvistikasida emotiv so'zlarni aniqlash va ularning tarjimasi.....	287
Г.А.Воҳидова	
Этимологияя баъзе калимаҳо дар "Фиёс-ул-лугот"-и Муҳаммад Фиёсиддин.....	290
Л.Т.Галимуллина, Ш.И.Иброхимова	
Исследования влияния языковых контактов на тюркские языки: история и классификация	296
Н.К.Аббасова, Ш.АТожибоева	
Роль медиа в образовании.....	303
D.G'.Gafurova	
Zamonaviy hikoyalarda peyzaj tasviri.....	307
Z.Akbarova, Z.M.Sobirova	
O'qish tezligi va matnni tushunish: neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan.....	311
Z.A.Akbarova, D.T.Ziyoidinova	
Afaziya turlari tahliliiga neyropsixolingvistik yondashuv.....	315



UO'K: 159.9

**O'QISH TEZLIGI VA MATNNI TUSHUNISH: NEYROPSIXOLINGVISTIK NUQTAYI
NAZARDAN**

**СКОРОСТЬ ЧТЕНИЯ И ПОНИМАНИЕ ТЕКСТА: НЕЙРОПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ
ПЕРСПЕКТИВА**

**READING SPEED AND TEXT COMPREHENSION: A NEUROPSYCHOLINGUISTIC
PERSPECTIVE**

Zuxro Akbarova 

Farg'ona davlat universiteti DSc, professor

Sobirova Zilolaxon Maxmudovna 

Farg'ona davlat universiteti F.f.n., dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalardagi o'qish jarayoni neyropsixolinguistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor o'qish tezligi va matnni tushunish jarayonlari o'rtaqidagi bog'liqlikka qaratilgan. Shuningdek, "DonoQiz-Uz" tashxislash testining neyropsixolinguistik asoslari tahlil qilinib, uning bolalardagi fonologik ishlov berish, semantik anglash va dekodlash jarayonlarini aniqlashdagi sezgirli misollar orqali asoslab beriladi.

Аннотация

В статье анализируется процесс чтения у детей с точки зрения нейропсихолингвистики. Основное внимание уделяется взаимосвязи между скоростью чтения и процессами понимания текста. Также анализируются нейропсихолингвистические основы диагностического теста «DonoQiz-Uz» и на примерах обосновывается его чувствительность в выявлении процессов фонологической обработки у детей.

Abstract

This article analyzes the reading process in children from a neuropsycholinguistic perspective. The main focus is on the relationship between reading speed and text comprehension processes. The neuropsycholinguistic foundations of the "DonoQiz-Uz" test are also analyzed, and its sensitivity in identifying phonological processing, semantic comprehension, and decoding processes in children is substantiated through examples.

Kalit so'zlar: Neyropsixolinguistica, o'qish tezligi, matnni tushunish jarayonlari, "DonoQiz-Uz" tashxislash testi.

Ключевые слова: Нейропсихолингвистика, скорость чтения, процессы понимания текста, диагностический тест «DonoQiz-Uz».

Key words: Neuropsycholinguistics, reading speed, text comprehension processes, "DonoQiz-Uz" diagnostic test.

KIRISH

O'qish insonda ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash va idrok etish jarayonlarining murakkab integratsiyasini talab qiladigan neyrokognitiv faoliyat hisoblanadi. Neyropsixolinguistik nuqtai nazardan qaralganda, o'qish jarayoni miyaning turli funksional zonalaridagi faoliyatning muvofiqlashuvi bilan ta'minlanadi[1].

O'qish tezligi asosan vizual vosita orqali kirib kelayotgan lingvistik axborotni miyadagi vizual tanish markazi (occipito-temporal cortex) orqali shifrlash jarayoniga bog'liq[2]. Bu jarayon avtomatlashgan bo'lsa, bola so'zlarni tanishga kam vaqt sarflaydi va asosiy kognitiv resurslar mazmunni anglashga yo'naltiriladi. Agar bu jarayon avtomatlashmagan bo'lsa, so'zlarni dekodlashga miyada ortiqcha yuk tushadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYASI


Matnni tushunish jarayonida Vernike maydoni (semantic processing) va ishchi xotira tizimi faol ishtirot etadi[3]. O'qilgan so'z va so'z birikmalari dastlab fonologik kodga aylantiriladi, keyin

miyadagi semantik tarmoqlar orqali mazmuniy qayta ishlashga yuboriladi. Bu jarayonda ma'lumotlar gipotetik tarzda umumlashtiriladi va inferensiya orqali to'ldiriladi.

Neyropsixolingvistik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, o'qish faoliyatida tilning ikki asosiy neyron zonasasi — Vernike (tushunish) va Broka (ifodalash) maydonlari o'zaro faollikda ishtirot etadi[4]. Agar bu tizimlardagi faoliyat disbalans holatiga tushsa, bola tez o'qishi mumkin, ammo tushunish sust kechadi yoki aksincha — tushunsa-da, so'zlarni talaffuz etishda qiyaladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqotimiz natijasida "DonoQiz-Uz" tashhislash testi ishlab chiqildi. Testning tuzilishi aynan shu neyropsixolingvistik tamoyillarga asoslangan. Testning ikkita moduli — (1) o'qish tezligi, (2) tushunish qobiliyati — bolalarning vizual dekodlash, fonologik ishlov berish va semantik tahlil mexanizmlarini baholashga mo'ljallangan. Sinov natijalari bolalardagi avtomatizatsiya darajasini va ma'noni idrok etish qobiliyatini ko'rsatib beradi.



Ushbu diagrammada "DonoQiz-Uz" tashhislash testining 3 va 4-sinf o'quvchilari bo'yicha o'qish tezligi (bir daqiqada o'qilgan so'zlar) ko'rsatilgan.

Sinflar bo'yicha kognitiv o'sish dinamikasi:

3-sinf matn 1 bo'yicha o'rtacha tushunish 3.8 ta, Matn 2 bo'yicha esa 4.1 ta javob.

4-sinf bo'yicha Matn 1 bo'yicha tushunish 4.5 ta, Matn 2 bo'yicha 4.7 ta javob.

Bu o'sish semantik anglash, inferensiya va kognitiv integratsiya jarayonlari barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Matnlar o'rtasidagi semantik yuk ta'siri:


Ikkala sinfda ham Matn 2 natijalari Matn 1 dan yuqori. Bu Matn 2 ni leksik va kognitiv jihatdan kuchliroq ekanini anglatishi mumkin. Boshqacha aytganda, bolalar mazmunli, mantiqiy bog'langan va vizual kontekstli matnlarni yaxshiroq qabul qiladi.

4-sinfdagagi natijalar yuqoriroq va bir xil darajada ekanini hisobga olsak, fonologik dekodlash avtomatizatsiyalashgan va bolalarda semantik qayta ishlash uchun neyrokognitiv resurslar hali to'liq shaklanmagan. Bu miyadagi Vernike maydoni va ishchi xotira tizimi samarali ishlayotganini ko'rsatadi.

Diagramma "DonoQiz-Uz" tashhislash testining nafaqat o'qish tezligi, balki semantik qayta ishslash va kognitiv onglilikni aniqlashda samarali diagnostika vositasi ekanini isbotlaydi. 4-sinfda kuzatilgan o'sish neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan verbal tizimlarning avtomatizatsiyalangan,

TILSHUNOSLIK

kognitiv yukning pastlagan va metakognitiv nazorat shakllanganligini ko'rsatadi. Bu test yordamida individual intervensiya dasturlarini rejalashtirish mumkin.



Ushbu diagrammada "DonoQiz-Uz" tashhislash testining 3 va 4-sinf dagi matnni tushunish natijalari tasvirlangan. Natijalar shunday deyishga asos beradi: 4-sinf o'quvchilarida to'g'ri javoblar soni ko'proq — bu semantik anglash, inferensiya qilish va kognitiv barqarorlikning shakllanganligini anglatadi. Matn 2 ko'pincha yuqoriqoq natjalarni bermoqda, bu uning til tuzilishi yoki axborotga boylik darajasi bo'yicha bolalar uchun ko'proq mos kelganini ko'rsatishi mumkin. O'qish tezligi va tushunish darajasini o'lchash orqali o'quvchidagi rivojlanish bosqichi, potensial muammolar (disleksiya xavfi), va ta'llim intervensiysi uchun yo'nalishlar aniqlanadi. Bu alohida ehtiyojli bolalar bilan ishslashda, individual ta'llim strategiyasini ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'qish tezligi va matnni tushunish o'rtasidagi muvozanatni to'g'ri baholash — bolalardagi kognitiv va til rivojlanishini xolis aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichdir. O'qish tezligi va matnni tushunish jarayonlari miyadagi aniq neyron strukturalar tomonidan boshqariladigan tizimli faoliyat hisoblanadi. Bolalarda ushbu jarayonlar rivojlanish bosqichlariga qarab shakllanadi va avtomatizatsiya jarayoni matnni tushunish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixolingvistik mexanizmlarni hisobga olgan holda, mazkur ko'rsatkichlar asosida erta diagnostika va maqsadli intervensiya yo'lga qo'yilishi, ta'llim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

"DonoQiz-Uz" tashhislash testi aynan shu mexanizmlarni aniqlash, baholash va erta intervensiya qilish uchun ishonchli neyropsixolingvistik vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Shaywitz, S. E. Overcoming Dyslexia. Yale University Press. 2003
- Wolf, M., & Bowers, P. G. The double-deficit hypothesis for the developmental dyslexias. *Journal of Educational Psychology*. 1999
- Dehaene, S. Reading in the Brain: The Science and Evolution of a Human Invention. Viking Penguin. 2009
- Luria, A. R. The Working Brain: An Introduction to Neuropsychology. Basic Books. 1973
- Baddeley, A. Working memory: looking back and looking forward. *Nature Reviews Neuroscience*. 2003
- Friederici, A. D. The cortical language circuit: From auditory perception to sentence comprehension. *Trends in Cognitive Sciences*. 2012.
- Z.A.Akbarova, Z.M.Sobirova. Milliy Neyropsixolingvistik Tashxislash Metodikasini Yaratish Zaruriyati Xususida. Miasto Przyszlosci Kielce, 2023, 163-165.

8. Akbarova Z. A. Teaching to Express Subjective Assessment of Pedagogical Psychological Characteristics of Preschool Children. Texas Journal of Philology, Culture and History.2023
9. Собирова З.М. Социолингвистика и анализ языковой вариативности. INDIA INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY.2023.
10. Собирова З.М. А.Р.Луриянинг нутқий патологияларни ташхислашга доир қарашлари таҳлили. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM International scientific-online conference.79-82 б. 2024.
11. Собирова З.М. Ж.Пиаженинг боланинг нутқи ва тафаккури доир концепцияси. "Жадидилар адабий меросининг маънавий-маърифий аҳамияти ва жамият тараққиётидаги ўрни" халқаро илмий амалий анжуман материаллари. 455-456 б.2024
12. Собирова З.М. Тил ва онг муносабати Л.С.Виготский психологик талқинида. FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University. 2024/№3546-550 б.